

JADIDLAR IJODIDA ETNAGIRAFIK MA'LUMOTLAR

I.M. Xaydarov

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi”
kafedrasi professori, tarix fanlari doktori (DSc).

Jurayev Sharofiddin

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, “Sharq mamlakatlari tarixi” yo‘nalishi
2-kurs talabasi.

E-mail: izzatillakhon@gmail.com, sharofiddinjurayev05@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20181283>

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidlar ijodining etnografik asoslari tahlil qilinadi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan jadidchilik harakati milliy uyg‘onish, ma‘rifat va modernizatsiya g‘oyalarini ilgari surgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Fitrat kibi namoyandalar xalqning urf-odatlarini, turmush tarzi va tilini o‘rganib, ularni zamonaviy maktab, teatr, matbuot orqali targ‘ib qilgan. Kolonial siyosatga qarshi ma‘rifiy kurashda etnografik meros milliy o‘zlikni anglash vositasi bo‘lgan.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, folklor, etnografiya, milliy uyg‘onish, og‘zaki ijod, urf-odatlar, Fitrat, Behbudiy, Cho‘lpon, milliy identitet

ИНФОРМАЦИЯ О НАРОДНОЙ ТРАДИЦИИ И ЭТНАГИРАФИИ ДЖАДИДОВ

Аннотация. В этой статье анализируются этнографические основы джадидского творчества. Джадидистское движение сформировалось в Туркестане в конце XIX — начале XX века и выдвигало идеи национального возрождения, просвещения и модернизации. Махмудходжа Бехбуди, Абдулла Кадири, фитрат кибиди изучали обычаи, образ жизни и язык народа, распространяя их через современные школы, театры и прессу. В борьбе Просвещения против колониальной политики этнографическое наследие было средством национального самосознания.

Ключевые слова: джадидизм, фольклор, этнография, национальное возрождение, устное творчество, традиции, национальная идентичность

INFORMATION ABOUT THE FOLK LORE AND ETHNAGIRAFY OF THE JADIDS

Abstract: This article analyzes the ethnographic foundations of Jadidic creativity. Jadidist movement formed in Turkestan in the late 19th and early 20th centuries and put forward the ideas of national revival, enlightenment and modernization. Mahmudkhoja Behbudi, Abdulla Kadiri, Fitrat kibi studied the customs, way of life and language of the people, propagated them through modern schools, theaters and press. In the enlightenment struggle against colonial politics, ethnographic heritage was a means of national self-awareness.

Keywords: Jadidism, folklore, ethnography, national revival, oral tradition, customs, national identity, modernization

Kirish. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston hududida yuzaga kelgan jadidchilik harakati Markaziy Osiyo xalqlari tarixida muhim ijtimoiy-madaniy burilish yasagan hodisalardan biridir. Ushbu harakat vakillari jamiyatni ma‘rifat asosida yangilash, xalqni savodli qilish, milliy ongni shakllantirish va zamonaviy taraqqiyot yo‘liga olib chiqishni o‘z

oldilariga maqsad qilib qo‘ygan edilar. Jadidlar faoliyati nafaqat ta‘lim va siyosat sohasida, balki folklor va etnografiya kabi ilmiy yo‘nalishlarda ham muhim natijalar berdi. Ular xalqning og‘zaki ijodi, urf-odatlarini, an‘analari va kundalik turmush tarzini o‘rganish orqali milliy o‘zlikni anglash jarayoniga katta hissa qo‘shdilar. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi globallashuv sharoitida milliy identitetni saqlash va rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan jadidlarning folklor va etnografiyaga oid qarashlarini o‘rganish nafaqat tarixiy, balki zamonaviy ilmiy ahamiyatga ham ega.

Jadidchilikni o‘rganishning ilmiy ahamiyati.

Jadidchilik harakatini o‘rganish bugungi kunda ham muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Avvalo, bu harakat Markaziy Osiyo xalqlarining milliy uyg‘onish jarayonini tushunishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Jadidlar tomonidan to‘plangan folklor va etnografik materiallar xalqning tarixiy xotirasi, madaniy merosi va ijtimoiy hayotini o‘rganishda muhim ilmiy manba vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, jadidlarning folklor va etnografiyaga bo‘lgan yondashuvi zamonaviy fanlar uchun ham dolzarbdir. Ular ushbu sohalarini faqat nazariy emas, balki amaliy va mafkuraviy vosita sifatida talqin qilganlar. Bu esa bugungi kunda milliy identitetni mustahkamlash, yosh avlodni tarbiyalash va madaniy merosni asrab-avaylash jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, jadidchilikni o‘rganish orqali tarixiy tajribani tahlil qilish, undan zamonaviy jamiyat rivoji uchun foydalanish imkoniyati yuzaga keladi. Jadidlar merosi bugungi ilm-fan, madaniyatshunoslik, folklorshunoslik va etnografiya sohalarida muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston hududi murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni boshdan kechirdi. Bu davrda hudud Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritilgan bo‘lib, mustamlakachilik siyosati mahalliy aholining iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. An‘anaviy ta‘lim tizimining eskirib borishi, ilm-fan va texnologiyalarning rivojlanishdan ortda qolishi jamiyatda islohotlarga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirdi. Aynan shu tarixiy sharoit jadidchilik harakatining yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Jadidchilik harakati dastlab Qrim va Volgabo‘yi hududlarida shakllanib, keyinchalik Turkistonga kirib keldi. Bu harakatning asoschisi sifatida Ismail Gasprinskiy e‘tirof etiladi. U 1883-yilda “Tarjimon” gazetasini nashr etib, turkiy xalqlar o‘rtasida ma‘rifat, birlik va taraqqiyot g‘oyalarini targ‘ib qildi. Uning “Til, fikr va ishda birlik” shiori jadidchilik harakatining mafkuraviy asosiga aylandi. Turkistonda jadidchilik harakati XX asr boshlarida keng rivojlandi (1900–1917-yillar). Bu davrda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi ziyolilar jadidchilik g‘oyalarini faol targ‘ib etdilar. Ular yangi usul maktablarini tashkil etish, matbuotni rivojlantirish va milliy ongini shakllantirish orqali jamiyatni yangilashga intildilar. Jadidchilik harakati uch asosiy bosqichda rivojlandi: shakllanish davri (1880–1900-yillar), rivojlanish davri (1900–1917-yillar) va siyosiy faollik bosqichi (1917-yildan keyin).¹

Jadidchilik harakati o‘zining keng qamrovli mafkuraviy asoslariga ega bo‘lib, uning markazida ma‘rifatparvarlik, milliy uyg‘onish va ijtimoiy-madaniy islohotlar g‘oyalari turadi. Birinchidan, jadidlar ma‘rifatparvarlikni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ko‘rdilar. Ularning fikricha, xalqni savodli qilish, ilm-fanni rivojlantirish va zamonaviy bilimlarni joriy

¹ Khalid A. *Musulmon madaniy islohotlari siyosati: Markaziy Osiyoda jadidizm.* – Berkeley: Kaliforniya universiteti nashriyoti, 1998. – 320 p.

etish orqali jamiyatni rivojlantirish mumkin edi. Shu sababli ular “usuli jadid” maktablarini tashkil etib, yangi pedagogik usullarni amaliyotga tatbiq etdilar. Ikkinchidan, jadidchilik harakati milliy uygʻonish gʻoyasiga asoslandi. Jadidlar xalqning tarixiy xotirasini tiklash, milliy til va madaniyatni rivojlantirish orqali milliy oʻzlikni anglashni kuchaytirishga intildilar. Ular millatni birlashtirish va uning oʻziga xosligini saqlab qolish zarurligini taʼkidladilar. Uchinchidan, jadidlar taʼlim va madaniyatni isloh qilishni asosiy vazifalardan biri deb bildilar. Ular eski maktab va madrasalardagi taʼlim tizimini tanqid qilib, zamonaviy fanlar – matematika, geografiya, tarix va tabiiy fanlarni oʻqitishni yoʻlga qoʻydilar. Shuningdek, teatr, matbuot va adabiyot orqali xalqni maʼrifatlantirishga alohida eʼtibor qaratdilar.² Umuman olganda, jadidchilik harakati oʻz davrining ilgʻor gʻoyalarni oʻzida mujassam etgan boʻlib, u nafaqat maʼrifiy, balki ijtimoiy-siyosiy va madaniy yangilanishning muhim omiliga aylandi. Bu harakat Turkiston xalqlarining milliy oʻzlikni anglash jarayonida muhim bosqich boʻlib xizmat qildi.³ Jadidchilik harakatining eng muhim yoʻnalishlaridan biri taʼlim tizimini tubdan isloh qilish boʻldi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistondagi anʼanaviy maktab va madrasalarda taʼlim asosan diniy bilimlar bilan cheklanib, zamonaviy fanlar yetarli darajada oʻqitilmas edi. Bu esa jamiyatning ilmiy va texnik taraqqiyotdan ortda qolishiga sabab boʻlgan. Shu bois jadidlar taʼlimni yangilashni milliy taraqqiyotning asosiy sharti sifatida ilgari surdilar. “Usuli jadid” maktablari aynan shu ehtiyoj asosida tashkil etildi. Bu maktablarda tovush asosida savod oʻrgatish, yangi darsliklardan foydalanish va tizimli oʻqitish usullari joriy etildi. Jadid maktablarida oʻquvchilar qisqa vaqt ichida savod chiqarib, mustaqil fikrlashga oʻrgatilgan. Bu esa taʼlim sifatining oshishiga olib keldi. Yangi usul maktablarida zamonaviy fanlar – matematika, geografiya, tarix, tabiiyot kabi fanlar oʻqitila boshlandi. Bu orqali yosh avlodning dunyoqarashi kengayib, ularning zamonaviy bilimlarga ega boʻlishiga zamin yaratildi. Taʼlim tizimidagi bu islohotlar jamiyatda milliy ongning shakllanishi va taraqqiyot gʻoyalarining keng tarqalishiga xizmat qildi. Shu maʼnoda, Abdulla Avloniy taʼlimni millat kelajagini belgilovchi asosiy omil sifatida baholab, yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash zarurligini taʼkidlagan.⁴

Jadidlar faoliyatining yana bir muhim yoʻnalishi matbuot va adabiyot sohasida namoyon boʻldi. Ular matbuotni jamiyatni maʼrifatlantirish, milliy ongni shakllantirish va ijtimoiy muammolarni yoritishning eng samarali vositasi deb bildilar. Shu sababli XX asr boshlarida Turkistonda bir qator gazeta va jurnallar nashr etila boshladi. Jadid matbuoti xalqni ilm-fanga, taraqqiyotga va yangilanishga chorlovchi gʻoyalarni targʻib qildi. Xususan, Mahmudxoʻja Behbudiy tomonidan nashr etilgan “Samarqand” gazetasi hamda boshqa nashrlar jamiyatda katta ijtimoiy rezonans uygʻotdi. Bu nashrlarda xalqning kundalik hayoti, iqtisodiy muammolari, taʼlim masalalari va milliy uygʻonish gʻoyalari keng yoritilgan.⁵ Adabiyot ham jadidlar faoliyatining muhim tarkibiy qismi boʻldi. Jadid adabiyoti orqali jamiyatdagi muammolar tanqidiy yoritilib, xalqni oʻylashga, oʻzligini anglashga undash maqsad qilingan. Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Choʻlpon kabi ijodkorlar oʻz asarlarida maʼrifat, erkinlik va taraqqiyot gʻoyalarini ilgari surdilar. Ayniqsa, dramaturgiya orqali sahna asarlari keng ommaga

2 Qahramon Rajabov. *Jadidlar va milliy gʻoya*. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2010. – 200 b.

4 Mahmudxoʻja Behbudiy. *Tanlangan asarlar*. – Toshkent: Maʼnaviyat, 1999. – 240 b.

tez va ta'sirchan yetib bordi, bu esa milliy ongni shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qildi.

Jadidchilik harakati vaqt o'tishi bilan faqat ma'rifiy emas, balki siyosiy va ijtimoiy harakat sifatida ham rivojlandi. Jadidlar jamiyatdagi mavjud muammolarni chuqur anglab, ularni hal etish uchun ijtimoiy va siyosiy islohotlar zarurligini ilgari surdilar. Ularning asosiy maqsadlaridan biri milliy ongni shakllantirish edi. Jadidlar xalqni o'z tarixini, tilini va madaniyatini anglashga undab, milliy o'zlikni tiklashga harakat qildilar. Bu jarayonda matbuot, ta'lim va adabiyot asosiy vosita sifatida xizmat qildi. Shuningdek, jadidlar mustaqillik va ozodlik g'oyalarini ilgari surdilar. Ular milliy davlat barpo etish, xalq manfaatlarini himoya qilish va jamiyatni demokratik asosda boshqarish zarurligini ta'kidladilar. Bu borada Mahmudxo'ja Behbudiy va Abdurauf Fitrat kabi ziyolilar siyosiy faollik ko'rsatib, jamiyatni uyg'otishga harakat qilganlar. 1917-yilgi siyosiy voqealardan so'ng jadidlar siyosiy maydonga yanada faol kirib kelib, milliy davlatchilik g'oyalarini ilgari surdilar. Ularning bu faoliyati keyinchalik mustaqillik g'oyalarining shakllanishiga muhim zamin yaratdi.

Folklarga ilmiy yondashuv.

Folklor – bu xalqning og'zaki ijodi, tarixiy xotirasi va ma'naviy dunyosini aks ettiruvchi muhim madaniy qatlam hisoblanadi. U ertaklar, maqollar, rivoyatlar, dostonlar, qo'shiqlar va boshqa janrlar orqali avloddan-avlodga o'tib kelgan boy merosni o'zida mujassam etadi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida jadidlar folklorni faqat badiiy hodisa sifatida emas, balki xalqning ijtimoiy ongini shakllantiruvchi va milliy o'zlikni anglashga xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida baholadilar. Jadidlarning folklarga bo'lgan yondashuvi ilmiy va amaliy xarakterga ega edi. Ular folklorni o'rganishda uning mazmuni, ijtimoiy funksiyasi va tarbiyaviy ahamiyatiga alohida e'tibor qaratdilar. Jadidlar fikricha, folklor xalqning tarixiy tajribasi va hayot falsafasini o'zida aks ettiradi. Shu sababli uni chuqur o'rganish millatning o'zligini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jadidlar folklorni milliy uyg'onish mafkurasining muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rdilar. Ular xalq og'zaki ijodi namunalariidan foydalanib, jamiyatni ma'rifatlantirish, eskirgan qarashlarni tanqid qilish va yangi g'oyalarni targ'ib qilishga intildilar. Bu esa folklarga nisbatan yangi, zamonaviy yondashuvning shakllanishiga olib keldi.

Jadidlar folklor namunalarini yig'ish, qayd etish va ilmiy jihatdan tahlil qilish ishlariga katta e'tibor qaratdilar. Ular ertaklar, maqollar, rivoyatlar va boshqa og'zaki ijod namunalari orqali xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi va ijtimoiy munosabatlarini o'rganishga harakat qildilar. Bu jarayon nafaqat ilmiy, balki ma'rifiy ahamiyatga ham ega bo'ldi. Ayniqsa, Abdurauf Fitrat folklorshunoslik sohasida muhim ilmiy qarashlarni ilgari surgan. U folklorni xalqning tarixiy xotirasi va madaniy merosi sifatida baholab, uni o'rganish zarurligini ta'kidlagan. Fitrat o'z asarlarida xalq qo'shiqlari, ertaklar va marosimlarga oid materiallarni tahlil qilib, ularning ijtimoiy va madaniy ahamiyatini ochib bergan⁶. Jadidlar folklor namunalarini tahlil qilishda ularning mazmuni, g'oyaviy yo'nalishi va tarbiyaviy jihatlariga e'tibor qaratdilar.⁷ Masalan, maqollar orqali xalqning donishmandligi, ertaklar orqali esa axloqiy qadriyatlarini ifodalanganini ko'rsatdilar. Shu tariqa, folklor ilmiy o'rganish obyekti sifatida yangi bosqichga ko'tarildi.

Jadidlar folklorni jamiyatni ma'rifatlantirish va yosh avlodni tarbiyalashning muhim vositasi deb bildilar. Ular xalq og'zaki ijodi orqali insoniy fazilatlarini shakllantirish, axloqiy

⁶ Azamat Ziyov. *O'zbekiston tarixi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)*. – Toshkent: Sharq, 2000. – 310 b.

⁷ Abdulla Avloniy. *Turkiy guliston yoxud axloq*. – Toshkent: O'g'ituvchi, 1992. – 160 b.

qadriyatlarni mustahkamlash va milliy ongni rivojlantirish mumkin deb hisobladilar. Folklorning ma’rifiy ahamiyati shundaki, u xalqning tarixiy tajribasini va hayotiy saboqlarini o’zida mujassam etadi. Jadidlar aynan shu xususiyatdan foydalanib, xalqni uyg’otish, uni zamonaviy taraqqiyot yo’liga yo’naltirishga harakat qildilar. Ular folklor orqali savodsizlik, jaholat va eskirgan urf-odatlariga qarshi kurash olib bordilar. Shuningdek, folklor milliy ongni shakllantirishda muhim rol o’ynadi. Xalqning o’ziga xos qadriyatlari, an’analari va dunyoqarashi folklor orqali ifodalaniib, bu esa milliy identitetning mustahkamlanishiga xizmat qildi. Jadidlar bu jarayonni ongli ravishda qo’llab-quvvatladilar. Folklorning adabiyotga ta’siri ham muhim ahamiyatga ega bo’ldi. Jadid adabiyotida xalq og’zaki ijodi unsurlari keng qo’llanilib, asarlarning badiiy va ta’sirchanligini oshirdi. Bu borada Cho’lpon ijodi alohida e’tiborga loyiq bo’lib, uning asarlarida folklor motivlari, xalqona iboralar va poetik uslublar keng o’rin olgan. Umuman olganda, jadidlarning folklorga bo’lgan yondashuvi uni faqat madaniy meros sifatida emas, balki jamiyatni rivojlantiruvchi muhim omil sifatida talqin qilish bilan ajralib turadi. Bu esa folklorshunoslik fanining rivojlanishiga va milliy o’zlikni anglash jarayoniga katta hissa qo’shdi.

Etnografiya – bu xalqning turmush tarzi, urf-odatlarini, an’analari, maishiy hayoti, moddiy va ma’naviy madaniyatini o’rganuvchi ilmiy yo’nalish hisoblanadi. U jamiyatning tarixiy rivojlanish jarayonini, xalqning mentaliteti va ijtimoiy xulq-atvorini chuqur tahlil qilishga imkon beradi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida jadidlar etnografiyani faqat tavsifiy fan sifatida emas, balki milliy o’zlikni anglashning muhim ilmiy asosi sifatida talqin qildilar. Jadidlar fikricha, xalqning urf-odatlarini va kundalik hayoti uning tarixiy xotirasi va madaniy kodini ifodalaydi. Shu sababli etnografik ma’lumotlarni o’rganish millatning o’zligini tiklash va uni zamonaviy taraqqiyot yo’liga olib chiqishda muhim ahamiyatga ega edi. Bu yondashuv jadidlarning milliy uyg’onish g’oyasi bilan bevosita bog’liq bo’lib, ular etnografiyani ijtimoiy islohotlar uchun ilmiy asos sifatida ko’rdilar.

Jadidlar o’z asarlari va maqolalarida xalqning kundalik hayoti, urf-odatlarini va ijtimoiy munosabatlarini keng yoritganlar. Ularning etnografik kuzatuvlari Turkiston jamiyatining XX asr boshidagi real hayotini aks ettiruvchi muhim manba bo’lib xizmat qiladi. Birinchidan, ular to’y, dafn, Navro’z va boshqa marosimlarni batafsil o’rganganlar. Bu marosimlar xalqning ijtimoiy birligi va madaniy qadriyatlarini ifodalovchi muhim hodisa sifatida baholangan. Jadidlar ayrim ortiqcha sarf-xarajat talab qiladigan urf-odatlarini tanqid qilib, ularni isloh qilish zarurligini ta’kidlaganlar. Ikkinchidan, oilaviy munosabatlar masalasi ham jadidlarning etnografik qarashlarida muhim o’rin egallagan. Ular nikoh, oilaviy tarbiya, ayollarning jamiyatdagi o’rni va avlodlar o’rtasidagi munosabatlarni tahlil qilganlar. Bu jarayonda ijtimoiy adolat va tarbiya masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Uchinchidan, milliy kiyim va turmush tarzi ham jadidlar tomonidan o’rganilgan muhim etnografik yo’nalishlardan biri bo’lgan. Ular xalqning kiyinish madaniyati, uy-joy tuzilishi, hunarmandchilik an’analari va kundalik hayotini tasvirlash orqali milliy madaniyatning boyligini ko’rsatishga harakat qilganlar.

Jadidlar etnografiyani faqat an’analarini qayd etuvchi fan sifatida emas, balki jamiyatni yangilash va modernizatsiya qilish vositasi sifatida ham ko’rganlar. Ularning fikricha, har bir millat o’zining an’analarini saqlagan holda, zamonaviy taraqqiyot talablariga moslashishi zarur edi. Shu nuqtai nazardan, jadidlar eski va yangi an’analar o’rtasidagi muvozanatni saqlash masalasiga katta e’tibor qaratganlar. Ular xalq orasida keng tarqalgan, lekin jamiyat taraqqiyotiga to’sqinlik qiluvchi ayrim urf-odatlarini tanqid qilib, ularni isloh qilish g’oyasini

ilgari surganlar. Shu bilan birga, milliy madaniyatning ijobiy jihatlarini saqlab qolish va rivojlantirish tarafdori bo'lganlar. Etnografiya jadidlar uchun ijtimoiy islohotlar bilan bevosita bog'liq edi. Ular jamiyatni yangilash jarayonida xalqning turmush tarzini, ijtimoiy munosabatlarini va madaniy qadriyatlarini o'rganish zarurligini ta'kidlaganlar. Bu esa islohotlarning real hayotga mos va samarali bo'lishini ta'minlagan. Umuman olganda, jadidlarning etnografiyaga bo'lgan yondashuvi ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lib, u milliy o'zlikni anglash va jamiyatni modernizatsiya qilish jarayonida muhim rol o'ynagan.

Xulosa. Jadidchilik harakati Turkiston xalqlarining XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi ijtimoiy, madaniy va ma'naviy hayotida tub burilish yasagan muhim tarixiy hodisa hisoblanadi. Ushbu harakat vakillari jamiyatni ma'rifat asosida yangilash, milliy ongini shakllantirish va xalqni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqishni asosiy maqsad qilib qo'yganlar. Tadqiqot davomida jadidlarning faoliyati nafaqat ta'lim va siyosat sohasida, balki folklor va etnografiya kabi ilmiy yo'nalishlarda ham chuqur iz qoldirgani aniqlandi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, jadidlar xalq og'zaki ijodi va etnografik materiallarni milliy o'zlikni anglashning muhim manbasi sifatida baholaganlar. Ular folklori xalqning tarixiy xotirasi, ruhiyati va dunyoqarashini aks ettiruvchi noyob madaniy qatlam sifatida talqin qilib, uni ilmiy jihatdan o'rganishga harakat qilganlar. Shu bilan birga, etnografik kuzatuvlar orqali xalqning urf-odatlarini, marosimlari, oilaviy munosabatlari va turmush tarzi chuqur tahlil qilingan.

Jadidlar, xususan Abdurauf Fitrat, Mahmudxo'ja Behbudiy va Abdulla Avloniy kabi ziyolilar folklor va etnografiyani nafaqat ilmiy, balki ma'rifiy va mafkuraviy vosita sifatida ham qo'llaganlar. Ular bu sohalar orqali jamiyatni isloh qilish, eskirgan qarashlarni yangilash va milliy uyg'onish g'oyalarini targ'ib etishga intilganlar. Umuman olganda, jadidlarning folklor va etnografiyaga oid merosi bugungi kunda ham o'z ilmiy va amaliy ahamiyatini yo'qotmagan. Ularning qarashlari zamonaviy folklorshunoslik, etnografiya va madaniyatshunoslik fanlari uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, jadidlar merosi milliy identitetni mustahkamlash, tarixiy xotirani tiklash va yosh avlodni ma'naviy barkamol etib tarbiyalashda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Khalid A. *Musulmon madaniy islohotlari siyosati: Markaziy Osiyoda jadidizm.* – Berkeley: Kaliforniya universiteti nashriyoti, 1998. – 320 bet.
2. Allworth E. A. *Zamonaviy o'zbeklar: XIV asrdan hozirgi kungacha.* – Stanford: Hoover Institution Press, 1990. – 400 bet.
3. Khalid A. *O'zbekistonni yaratish: Erta SSSRda millat, imperiya va inqilob.* – Ithaca: Cornell University Press, 2015. – 350 bet.
4. Mahmudxo'ja Behbudiy. *Tanlangan asarlar.* – Toshkent: Ma'naviyat, 1999. – 240 b.
5. Abdulla Avloniy. *Turkiy guliston yoxud axloq.* – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 160 b.
6. Azamat Ziyo. *O'zbekiston tarixi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari).* – Toshkent: Sharq, 2000. – 310 b.
7. Qahramon Rajabov. *Jadidlar va milliy g'oya.* – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – 200 b.